



LAFZIY SAN'ATLAR VA ULARNING BADIY ASAR TILIDA QO'LLANILISH O'RINLARI (ALISHER NAVOIY ASARLARI MISOLIDA)

Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lafziy san'atlar (nido, istifhom, amr va nahiy, tamanni') va ularning badiiy asarlar tilida qo'llanilish o'rinlari xususida so'z yuritilgan. Nazariy ma'lumotlar Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidan keltirilgan misollar bilan asoslangan.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, badiiy asar tili, she'riyat, ichki kechinmalar, timsol, liro-epik janr, nido, istifhom, amr va nahiy, tamanni'.*

"Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi¹".

Sh.M.Mirziyoyev

Ko'p asrli mumtoz adabiyotimizning bezavol xazinasini yaratgan atoqli shoir va nosirlarimizning san'atkorlik salohiyatlari sehrini kashf etish uchun ularning barchalariga zamin bo'lib xizmat qilgan badiiyat asoslari -she'riy san'atlar haqida ma'lumotga ega bo'lish eng muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, biz quyida tahlilga tortgan badiiy san'atlardan namunalar o'zining betakrorligi, jozibadorligi bilan diqqatga sazovordir. Jumladan, she'riyatimizda juda keng qo'llangan *nido* usuli lirik qahramonning boshqa shaxslarga, narsalarga xitob qilishi, ularga murojaat etgan holda o'zining ichki kechinmalari, tuyg'ulari, tilaklari mulohazalarini bayon qilishini nazarda tutadi. Bu xil tasvir asardagi timsollarning ma'naviy qiyofalarini jonliroq, ta'sirchanroq ifodalashga xizmat qiladi².

Duo aylabon surdi dono maqol,

Ki: "Ey shavkatingg'a falak poymol!..."

(240-bet)

Yana dedi shohi Faridunhasham,

Ki: "Ey hikmat ahlig'a roying hakam!

Hazarda bo'lur komu osudaliq,

Safarda vale ranju farsudaliq.

¹ Mirziyoyev Sh. M. Adabiyot va san'at, OAVlarning biznesga aylanishiga yo'l qo'ymaymiz. <https://oz.sputniknews-uz.com/20170803/Mirziyoyev-adabiyot-va-sanat-OAVlarning-biznesga-aylanishiga-hech-qachon-yol-qoymaymiz-5965025.html>.

² Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T.,1999.-B.231.

*Chu tab' anda ranjuru ojizdurur,
Nedin shug'li hikmatda joyizdurur?³*

(231-bet)

Yana so'rdi shohi Faridun hasham

Ki: "Ey hikmat ahlig'a roying hakam!"

(139-bet)

Nido usulidan liro-epik she'riyatda, xususan, dostonlarda keng foydalaniladi. Asar qahramonlarining xilma-xil shaxs va buyumlarga nidosi ko'pincha monologlar sifatida ifodalanadi.

Istifhom "so'ramoq" ma'nosini ifodalovchi bu usul she'riy asarlarda lirik qahramonning ichki olami, qalbida mavjlanayotgan tuyg'ulari, pokiza orzularini kimgadir yoki nimagadir murojaat etib so'rash orqali, savollar vositasida aks ettirishni nazarda tutadi. She'riyatimizda bu usul qadimdan juda keng qo'llanib keladi. Alisher Navoiyning "Saddiy Iskandariy" dostonidan keltirilgan ushbu misralar fikrimizni dalillaydi:

Chu ul yoringiz bordi, g'amginmusiz?

Aning hajrida motamoyinmusiz?

(473-bet)

Bu nav' o'lsa mundoq iki zot aro,

Ne bo'lg'ay, gumon qil iki yot aro?

(136-bet)

Bu oyin bila bersa har birga yer,

O'zung de, xirad ahli oni ne der?

(173-bet)

O'zungni gar o'ltursang ul dam ne sud?

Boshing kessang ilging bilan ham ne sud?

(280-bet)

Bo'rigaki qo'y bo'g'mog'i peshadur,

Shubon mehnatidin ne andishadur?

Kabutarni rosu qilurda halok,

Anga tiftl o'zin o'ltururdin ne bok?

Agar qatl o'lur o'z yerida ayon,

Siyahchol aro iki kun ne ziyon?

Va gar aylasa ul xatoni kishi,

Ne qilg'ay bu yanglig' baloni kishi?

(281-bet)

³ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -T., 1991. -B.231.

Amr va nahiy “buyurish va man qilish” ma’nosini ifodalab, she’rda lirik qahramonning kimgadir yoki nimagadir buyurish yoki biron narsadan qaytarish tarzida o’z ichki kechinmalarini bayon etishini nazarda tutadi.

Ayoqchi, manga jomi pirona tut,

Demon xisravona, faqirona tut.

Mug’anniy, hazin nag’ma bunyod qil,

Yigitlikning ayyomini yod qil.

(249-bet)

Mug’anniy, cholib, garm hangoma tuz,

Surudungda ohangi “Shahnoma” tuz.

(133-bet)

Boshingdin bu behuda savdoni qo’y,

Xayolingdin ushbu tamannoni qo’y.

(125-bet)

Ki: “Bu nav’ kelmakta komingni et,

Nekim dedi Doro payomingni et!”

(123-bet)

Dedi: “Bu so’ngaklardin afsona et,

Ne so’rsam, javobin aning yona et!”

(93-bet)

Ki: “Har ne so’zung bo’lsa og’oz qil,

Ne roz aytsang bizni hamroz qil!”

(303-bet)

Agar kelmasam o’z yarog’ingni ko’r,

Ne olingg’a kelsa ayog’ingni ko’r.

(300-bet)

Tamanni’ “orzu qilish” ma’nosini ifodalovchi bu badiiy usul she’rda lirik qahramonning u yoki bu tilagi -tamannosini ifodalashni nazarda tutadi. Ko’pincha bu orzu asarning dastlabki misralarida bayon qilinib, keying baytlarda uning mohiyati chuqurroq ochiladi, lirik qahramonning ichki kechinmalari , musaffo istaklari yorqinroq aks ettiriladi. Masalan:

Chu mehmon etib, dun kibi qochmayin,

Bal ul bo’lmayin, ro’zasin ochmayin.

(338-bet)

Meni ayla ogahki, ul ish qilay,

Necha aylay olg’oncha ko’shish qilay.

(308-bet)

Nasihati tariqin shior aylayin,

Duo birla-o’q ixtisor aylayin.

(478-bet)

*O'zum nechakim zoru pajmurdamen,
Lagadko'bi gardundin ozurdamen.*

(487-bet)

*Farog'at bila inbisot aylasam,
Tuzub bazm, bir dam nishot aylasam.*

(509-bet)

Yuqorida ko'rib o'tilgan she'riy san'atlar, avvalo, qadimiy va mumtoz she'riyatimizning yuksak badiiyatidan, buyuk ijodkorlarimizning beqiyos san'atkorlik dahosidan dalolat beradi. Liro va liro-epik asarlardan tanlangan ko'plab durdona baytlar misolida ko'rganimizdek, shoirlarimiz XI asrdan boshlab o'z asarlarining faqat g'oyaviy jihatdangina emas, ayni vaqtda badiiyat nuqtai nazaridan ham barkamol bo'lishiga alohida diqqat qilib xilma-xil she'riy san'atlardan barakali foydalanib, nafis va serjilo obidalar yaratganlar⁴.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, vaqt o'tgan sari she'riyatimizning badiiyat xazinasi yangi-yangi san'atlar bilan boyib borgan, bu esa o'z navbatida lirok va liro-epik she'riyatimizning tobora betakror, serjilo, sermazmun va ta'sirchan bo'lishiga katta ta'sir etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Adabiyot va san'at, OAVlarning biznesga aylanishiga yo'l qo'ymaymiz. <https://oz.sputniknews-uz.com/20170803/Mirziyoyev-adabiyot-va-sanat-OAVlarning-biznesga-aylanishiga-hech-qachon-yol-qoymaymiz-5965025.html>.

2. Mirziyoyev Sh.M. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida barpo etilgan Adiblar xiyobonida so'zlagan nutqidan. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-alisher-navoiy-nomidagi-ozbekiston-milliy-bogida-barpo-etilgan-adiblar->

3. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -T., 1991.

4. Amonov U. Adabiyot nazariyasi. -Buxoro, 2008.

5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T.,1999.

6. A'ZAMXONOV S.X.TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313>

⁴ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T.,1999.-B.114.